



STEFAN SVEYGNING “NOMA’LUM AYOL MAKUBI” VA NAZAR ESHONQULNING “MAYMUN YETAKLAGAN ODAM” ASARLARIDA BADIY PSIXOLOGIZM

Abdug’ofir Qosimov

FarDU professori, f.f.d.

Jalolova Gulasal Akbarali qizi

FarDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Stefan Sveygning “ Noma’lum ayol maktubi” va Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyalariidagi badiiy psixologizm va uni yuzaga chiqaruvchi tasvir vositalari, usullari o’rganilgan.*

Kalit so’zlar: *badiiy psixologizm, obraz, personaj,psixalogiya, psixologik tahlil, psixologik tasvir, qahramon nutqi, analitik prinsip, tipologik prinsip, dinamik prinsip.*

Badiiy asar – yozuvchi ijodi mahsuli bo’lib, unda inson va jamiyat hayoti, uning taqdiri tasvirlanadi.Badiiy asardagi obrazlar xarakterini to’laqonli ochish uchun adib badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda psixologik tasvir vositalaridan ham foydalanadi.

Badiiy psixologizm – asarda muallif tomonidan qahramon ichki olamiga kirib borish hamda obraz ruhiy olamining, qalb kechinmalarining,his-tuyg’ularining tasviri hisoblanadi. A.B. Yesin ta’biri bilan aytganda, badiiy psixologizm- bu asar personajining hayolat olami, fikrlari, mulohazalarining o’ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to’liq, batafsil va chuqur ifodalab berish. O’zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan tuzilgan adabiyotshunoslik terminlari lug’atida badiiy psixologizm atamasiga: “...badiiy asarda to’laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri, personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so’zlarining psixologik jihatdan asoslanishi shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jamlanmasi”⁵³ deb ta’rif beriladi.

Jumladan, jahon adabiyotining mashhur namoyondalaridan biri Stefan Sveyg ham o’z asarlarida inson ruhiyatini asosan ayollar ruhiyatini zo’r mahorat bilan ochib bera oladi. Stefan Sveyg avstriyalik yozuvchi bo’lib adibning “Qalb feasabrligi”, “Noma’lum ayol maktubi”, “Kristina”, “Kuygan ko’ngil faryodi” kabi kitoblari bilan o’zbek kitobxonlariga tanilgan. Adibning “Noma’lum ayol maktubi” novellasi uning ijodida alohida o’rin tutadi. Uning bitta qahramoni o’limi oldidan maktub yozgan

⁵³ Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр,2010. -Б.48





ayol hisoblanadi. Mana shu ayol timsolida yozuvchi shaxs psixologiyasining eng ichki, ko'z bilan ko'rib bo'lmasa-da, qalb bilan his qilinadigan chizgilarini, armon bo'lgan muhabbatning ayanchli yakunini ko'rsatib bera olgan. Asar kuchli dramatizm ruhida yozilgan.

Maktubga murojaat qilamiz: "...bir vaqt qarasam royal chalishni mashq qila boshlabman, chunki seni musiqani yaxshi ko'radi deb gumon qilgandim, buni ko'rib onam ham hayron. Pala-partish kiyinarkan, deya ko'nglingga keltirmaslik uchun ust-boshlarimni tozalab, yamab oladigan bo'ldim, onamning eski ko'ylagidan bichib tikib olgan to'rtburchak yamog'i bor matab fartugimni har kiyganimda uyalganimdan yerga kirib ketganday sezardim o'zimni. Yamoqni ko'rib qolib mendan hazar qilishiningdan qo'rqardim, shui vajdan har gal zinapoyadan yuqoriga yugurgilab chiqib ketayotganimda kitob solingan jildimni chap yonimga qisib olardim, shunda ham yana ko'zi tushib qolmasaydi, deb tirab-qaltirardim. Aslida bularning hammasi kulgili ediku-ya, nega desang axir sen menga biror marta ham qiyo boqmasdingda!"⁵⁴. Mazkur parchadan ma'lum bo'ladiki, qahramon nutqi orqali 13 yoshli qizchaning o'zidan 12 yosh katta 25 yoshli yigitga bo'lgan bolalarcha sof sevgisini, o'smir qizaloqqa xos muhabbat izhorini ochib bergen.

Qizaloq yigitning unga qiyo ham boqmasligini biladi lekin shunday bo'lsa ham bolalarga xos bo'lgan soddalik bilan unga yoqishga harakat qiladi va unga yoqmay qolishdan qattiq qo'rqadi. Haqiqatdan ham bolalar ruhiyatida o'ziga sevimli insonlarga yoqish uchun o'zicha harakat qilish, ularga yoqmay qolmaslik uchun injiqqliklaridan voz kechish holatlari kuzatiladi. Yuqorida bola ruhiyatidagi muhabbat, unga intilish tasvirini ko'rgan bo'lsak, yana bir o'rinda esa ayol ruhiyatidagi umid va umidsizlik, o'kinish, choraszilik ifodalangan:

“ – Sovg'aga kelgan gulku-ya, lekin kim yuborganini bilmayman. Shu vajdan bu gullar menga aziz-, deding. Shu onda senga bir qarab oldim.

– Kim bilsin, bu gullarni ham sen unutib yuborgan biron ayol yuborgandir!

Ajablanib menga qarading. Men esa ko'zingga tik qarab turaverdim."Tanusang-chi, aqalli endi tanusang-chi", - deya faryod qilardi ko'z qarashlarim. Ammo qarashlaringda mehr bilan bexabarlik alomatlari bor edi, xolos...O'qdek otilib chiqib ketdim, yo'lakda oz bo'lmasa xizmatkoringga o'zimni urib olardim...Eshityapsanmi? logann yoshligimdann buyon shu damgacha meni biron marta ko'rмаган bo'lsa ham, shu birgina lahzada u meni tanidi. Meni tanigani uchun tiz cho'kib qo'llarini o'pgim keldi...Hamma meni jonidan aziz ko'rardi, mehribon edi, faqat sen, yolg'iz

⁵⁴ Стефан Свейг. Номаълум аёл мактуби. Тошкент: Янги аср авлоди, 2018-Б.90





sengina meni eslamading, faqat sengina tanimading men sho'rlikni!"⁵⁵ Mana shu qismda qahramon psixalogiyasida eng katta fofja, portlash ro'y beradi, Chunki ayolning nech yillik umidlari puch bo'ladi va u uning sevgisi hech qachon qadr topmasligini, tuyg'ulari shunchaki qadrlisi tomonidan jism ehtiyoji sifatida qabul qilinishiga amin bo'ladi. Ayol bilan bir necha bor uchrashshiga qaramay yozuvchi uni umuman eslamaydi. Bu esa har qanday ayol ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi, tuyg'ularining poymol bo'lishi ayol hayotidagi kuchli drmatizmni yuzaga keltirdi.

Haqiqatdan ham Stefan Sveyg ushbu asarida javobsiz sevgi qurboni bo'lgan ayol qalbi fojiasini haqqoniy, ta'sirli tarzda ta'svirlay olgan.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm masalasi ilmiy maydonga o'tgan asrning o'ttalarida kirib keldi va bu atama ruhiyat(psixologizm), ruhiyat tasviri(psixologik tasvir), ruhiyat talqini (psixologik talqin), ruhiyat tahlili (psixologik tahlil) kabi nomlarga ega. O'zbek adabiyotida ham o'z asarlarida qahramon psixalogiyasini, undagi evrilish va o'zgarishlarni o'ziga xos tarzda tasvirlay olish qobiliyatiga ega yozuvchilar bor. Xuddi shunday yozuvchilardan biri Nazar Eshonquldir. U o'zbek adabiyotida o'z uslubiga ega ijodkor hisoblanadi. Adibning birgina "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi fikrimizning yorqin isbotidir. Sarlavhaning o'ziyoq kitobxonni o'ylantirad: maymunni yetaklagan odammi yoki odamni yetaklagan maymun. Adabiyotshunoslikka oid manbalarda badiiy psixologizmning uchta prinsiplari borligi aytildi: dinamik prinsip, analitik prinsip, tipologik, prinsip. Dinamik prinsipda qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari, mimika va qiliqlari, turli vaziyatlarda o'zini idora qila olishi va gap-so'zları orqali beriladi, "mohiyatan bu dramatik asar personajlari ruhiyatini ochish usuliga o'xshash, shu boisdan dinamik prinsip ba'zan psixologik tahlilning dramaturgik usuli deb ham ta'riflanadi".⁵⁶ Tipologik prinsipda obraz ruhiyati uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit shart-sharoitlari bilan bog'lab tasvirlab beriladi. Analitik prinsipda qahramon ichki kechinmalari, qalbidagi his-tuyg'ulari, tafakkur va mulohazasi, o'y-fikrlari dinamikasi tasvirlanadi. "Bunda bir hisdan boshqa his, bir o'ydan boshqa bir fikr o'sib chiqadi, ular bir-birini to'ldiradi, sifat jihatidan o'zgartiradi".⁵⁷

"Maymun yetaklagan odam" hikoyasida badiiy psixologizmning tipologik prinsipini ko'ramiz ya'ni rassom cholning ruhiyati u yashab turgan makon tasviri bilan bog'lab tasvirlanadi. "Cholning uyi hashamatli, keng, lekin toshlar tilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlari chirigan, umuman hovlidan chirkin va

⁵⁵ Стефан Свейг. Номаълум аёл мактуби. Тошкент: Янги аср авлоди, 2018-Б.124

⁵⁶ Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2010-Б.49

⁵⁷ Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2010-Б.49



badbo'y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ustida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yetgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi.⁵⁸ Bu tasvir orqali chol yashagan, bor kuch-g'ayrati bilan xizmat qilgan va afsuski umrining oxirida qadr topmagan mustabit jamiyat haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Bunin natijasida esa qahramon psixalogiyasida tushkunlik, o'z "men"ini yo'qotish, umidsizlik holatlari kuzatiladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek badiiy psixologizmda 3 xil prinsip bor: dinamik, tipologik va analitik. Nazar Eshonqul "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida tipologik prinsipdan foydalangan bo'lsa, Stefan Sveyg o'z asarida badiiy psixologizmga dinamik va analitik prinsip tomonidan yondashgan.

Umuman olganda, badiiy psixalogizm – inson ruhiyati tasviri bo'lib, har ikki ijodkor Stefan Sveyg va Nazar Eshonqul ham o'z asarlarida inson psixalogiyasini, undagi o'zgarishlarni, yemirilishlarni, haqqoniy va dadil tasvirlay ololgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Д.Қурунов, З.Мамажонов, М.Шералиева.Адабиётшунослик лугати. Тошкент: Академнаш,2010.
2. Эшонкул Н. Маймун етаклаган одам. Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
3. Стефан Свейг.Номаълум аёл мактуби. Тошкент: Янги аср авлоди,2018
4. Есин А. Б.Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2011.
5. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
6. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
7. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
8. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
9. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.

⁵⁸ Эшонкул Н. Маймун етаклаган одам. Тошкент: Янги аср авлоди, 2004— Б.121



- 
10. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
 11. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
 12. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.
 13. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.
 14. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
 15. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," *Scientific journal of the Fergana State University*: Vol. 2 , Article 12.
 16. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
 17. Oripova, Gulnoza, & Ibrohimova, Gulchiroy (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKALAR. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 251-255.
 18. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 304-309.
 19. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANIDA AYOL PORTRETING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 221-226.
 20. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O’ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA “YO’QOTILGAN AVLOD” MUAMMOSI. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 213-220.
 21. Oripova,, G. , & Mirzajonova,, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (10), 411-415.



22. Oripova, Gulnoza, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 495-501.

